



UO'K: 811.133.1'25:659.1

Sohiba A. YUNUSOVA,

PhD, dotsent O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

E-mail: sohibayunusova007@gmail.com, ORCID: 0009-0007-4456-195X

Professor, f.f.d A. Xolboboyeva taqrizi asosida

LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES IN FRENCH POLITICAL DISCOURSE

Annotation

This article aims to identify the linguopragmatic features of communicative strategies in French political discourse and to analyze the theoretical and practical aspects of the means of influence used in political speech. The objectives of the study are to identify and analyze the communicative strategies addressed to the recipient in French political discourse, the linguistic means expressing these strategies, as well as the pragmatic potential of political speech.

Key words: Discourse, communicative strategy, communication, addressee, addresser, influence, representation, analysis.

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОММУНИКАТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются лингвопрагматические особенности коммуникативных стратегий во французском политическом дискурсе, а также анализируются теоретические и практические аспекты средств воздействия, используемых в политической речи. Цель исследования заключается в выявлении коммуникативных стратегий, ориентированных на адресата во французском политическом дискурсе, определении языковых средств их выражения, а также анализе прагматического потенциала политической речи.

Ключевые слова: Дискурс, коммуникативная стратегия, коммуникация, адресат, адресант, воздействие, репрезентация, анализ.

FRANSUZ SIYOSIY DISKURSIDA KOMMUNIKATIV STRATEGIYALARNING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqola fransuz siyosiy diskursida kommunikativ strategiyalarning lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlash va siyosiy nutqda qo'llaniluvchi ta'sir vositalarining nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotimizning vazifalari fransuz siyosiy diskursida adresatga yo'naltirilgan kommunikativ strategiyalarni, ularni ifodalovchi lingvistik vositalarni hamda siyosiy nutqning pragmatik imkoniyatlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat.

Kalit so'zlari: Diskurs, kommunikativ strategiya, kommunikatsiya, adresat, adresant, ta'sir, tasvir, tahlil.

Kirish. Siyosiy diskurs jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni aks ettiruvchi, adresant va adresat o'rtasidagi kommunikativ aloqani ta'minlovchi muhim nutqiy faoliyat shaklidir. XXI-asrda siyosiy kommunikatsiyaning rivojlanishi natijasida siyosiy diskurs nafaqat davlat boshqaruvi va ommaviy axborot vositalarida, balki keng ijtimoiy maydonda ham katta ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda siyosiy nutqning ta'sirchanlik darajasi oshib, unda adresatga yo'naltirilgan kommunikativ strategiyalar, ishonitirish vositalari hamda turli lingvopragmatik usullar faol qo'llanilmoqda. Siyosiy diskursning bunday rivojlanishida ommaviy kommunikatsiya vositalarining kengayishi, Internet tarmoqlarining rivoji, raqamli platformalarning ommalashuvi va siyosiy muloqot shakllarining takomillashuvi muhim rol o'ynamoqda.

Biroq bir necha o'n yillar avval siyosiy diskurs hozirgidek tilshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanmagan va shu sababli uning lingvistik xususiyatlari uzoq vaqt davomida yetarlicha o'rganilmagan. Vaqt o'tishi bilan siyosiy nutq va kommunikatsiya jarayonlari tadqiq etila boshlandi, ammo dastlab tadqiqotchilar uni asosan siyosatshunoslik, tarix va sotsiologiya doirasida o'rgandilar. Keyinchalik siyosiy diskurs tilshunoslik, pragmatik lingvistik, kognitiv lingvistik, psixolingvistik va boshqa gumanitar fanlarning muhim tadqiqot obyektiga aylandi. Hozirgi vaqtda

“siyosiy diskurs” tushunchasining talqiniga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, bu bir tomondan, uning ko'p qirrali va murakkab hodisa ekanligini, ikkinchi tomondan esa, diskursning kommunikativ, pragmatik hamda lingvistik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan turli ilmiy qarashlarning mavjudligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'plab olimlar siyosiy diskursni o'z ilmiy qarashlari va tadqiqot yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda turlicha talqin qilishga harakat qilganlar. Ayrim tadqiqotchilar siyosiy diskurs tushunchasiga lingvistik va pragmatik nuqtai nazardan yondashgan bo'lsalar, boshqa olimlar uni siyosatshunoslik, sotsiologiya va kommunikatsiya nazariyasi doirasida o'rganganlar. Shu sababli “siyosiy diskurs” tushunchasining mazmuni va mohiyatiga oid turli xil ilmiy ta'riflar hamda yondashuvlar shakllangan.

Fransuz tilshunosligida siyosiy diskurs tadqiqotlari asosan diskurs tahlili va pragmatik lingvistik yo'nalishlari doirasida olib borilgan. Tadqiqotchilar Patrik Sharaudo va Dominik Mengeno kabi olimlar siyosiy diskursning kommunikativ xususiyatlarini, uning tuzilishi hamda adresant va adresat o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qilganlar. Asosan siyosiy nutq an'anaviy tarzda hokimiyat vakillari va jamiyat o'rtasidagi kommunikativ aloqa vositasi nuqtai nazaridan o'rganilgan. Keyinchalik esa, XX-asr oxiri va XXI-asr

boshlariga kelib fransuz tilshunosligida siyosiy diskursga lingvopragmatik yondashuv asosida qiziqish kuchaydi va uning kommunikativ strategiyalari, ta'sir mexanizmlari hamda lingvistik vositalari ko'plab tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganila boshlandi.

O'zbek tilshunosligida esa siyosiy diskurs bilan bog'liq tadqiqotlar keyingi yillarda lingvistika, pragmatik lingvistika va diskursologiya yo'nalishlari doirasida olib borilmoqda. Jumladan, o'zbek tilshunos olimlari tomonidan siyosiy nutqning kommunikativ xususiyatlari, unda qo'llaniladigan ta'sir vositalari hamda lingvistik birliklarning pragmatik imkoniyatlari o'rganilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda siyosiy diskursning turli jihatlari, xususan, uning strukturaviy, semantik va pragmatik xususiyatlari tahlil qilingan bo'lib, bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar zamonaviy o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Siyosiy diskursda adresant va adresat o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning mavjudligi nutq strategiyalarini tanlash va qo'llash jarayonining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Siyosiy nutqning o'ziga xosligi nafaqat uning mazmuniy yo'nalishi, balki auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, ishonitirish va muayyan g'oyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi lingvopragmatik vositalarda ham namoyon bo'ladi. Diskurs tadqiqotchilari, jumladan T. van Deyk, siyosiy diskursda qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar orqali ijtimoiy guruhlarining qarashlari, qadriyatlari va munosabatlari shakllanishini ta'kidlagan. Siyosiy kommunikatsiyada murojaat shakllari, olmoshlar qo'llanilishi, baholovchi birliklar, metaforik ifodalar hamda modal vositalar adresatga ta'sir ko'rsatishning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, siyosiy nutqda "biz" va "ular" oppozitsiyasidan foydalanish, ijobiy yoki salbiy baholash strategiyalari orqali muayyan siyosiy pozitsiyani mustahkamlash hamda auditoriyaning hissiy munosabatini shakllantirish kuzatiladi [Van Dijk T., 2006; 732-735]. Shu sababli siyosiy diskursni lingvopragmatik nuqtai nazardan tadqiq qilishda kommunikativ strategiyalar va ularni ifodalovchi til vositalarini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, siyosiy diskursda so'zlovchining kommunikativ xususiyatlari uning ijtimoiy mavqei, siyosiy pozitsiyasi va maqsadli auditoriyasi bilan bog'liq holda shakllanadi, degan fikr tarafdori bo'lamiz. Zero, siyosiy nutqda adresantning tanlagan til vositalari, murojaat shakllari, baholovchi birliklari hamda pragmatik strategiyalari uning kommunikativ maqsadini amalga oshirish va adresatga muayyan ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Fransuz siyosiy diskursi haqida so'z yuritganda, shuni ta'kidlash joizki, u ko'plab kommunikativ mezon va ko'rsatkichlarga ko'ra, adresatga yo'naltirilgan murakkab nutqiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy nutqda qo'llaniladigan kommunikativ vositalar ko'pincha bevosita ifodalanmasdan, yashirin pragmatik ma'nolar, baholovchi birliklar va kontekstual omillar orqali amalga oshiriladi. Bu esa siyosiy diskursning nafaqat axborot yetkazish, balki auditoriyaga ta'sir ko'rsatish, muayyan qarashlarni shakllantirish va siyosiy pozitsiyani mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Biroq shunga qaramay, fransuz siyosiy diskursi o'ziga xos kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lib, unda adresantning ijtimoiy, madaniy va psixologik xususiyatlariga mos ravishda turli strategiyalar tanlanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, siyosiy nutqning asosiy farqlovchi jihatlaridan biri unda qo'llaniladigan til birliklarining maqsadli tanlanishidir. Fransuz siyosiy diskursida murojaat shakllari, olmoshlar, metaforalar, baholovchi leksika hamda modal vositalar adresantning kommunikativ maqsadini amalga oshirishga xizmat qiladi. Siyosiy diskursda shaxs va jamiyat haqidagi tasvirlar bir tomondan turli ijtimoiy obrazlar orqali ifodalansa, ikkinchi tomondan, bu obrazlar muayyan siyosiy qadriyatlar va stereotiplarni shakllantirishga yo'naltirilgan kommunikativ strategiyalar yordamida namoyon bo'ladi.

Fransuz siyosiy diskursida kommunikativ strategiyalar ham muayyan lingvopragmatik xususiyatlarga ega. Siyosiy

nutqlarda, ayniqsa ommaviy chiqishlarda, adresat e'tiborini jalb qilish va unga ta'sir ko'rsatish maqsadida murojaat shakllari, baholovchi birliklar, metaforik ifodalar hamda identifikatsiya vositalaridan keng foydalaniladi. Fransuz siyosat arboblarning nutqlarida ko'p uchraydigan strategiyalardan biri jamiyat va siyosiy lider o'rtasidagi yaqinlikni ifodalovchi "biz" konseptini shakllantirishdir. Ushbu strategiya orqali so'zlovchi o'zini xalq manfaatlarini himoyachisi sifatida namoyon qiladi va adresat bilan ijtimoiy birdamlik munosabatini yaratishga intiladi. Masalan:

Nous devons construire ensemble une France plus forte et plus juste.

Mazkur misolda nous (biz) olmoshining qo'llanishi siyosiy birdamlik strategiyasini ifodalaydi. Ushbu birlik orqali siyosatchi o'zini xalqdan ajratmaydi, aksincha, umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida birlashgan jamoaning vakili sifatida ko'rsatadi. Une France plus forte et plus juste birikmasidagi forte (kuchli) va juste (adolatli) sifatlari esa ijobiy baholash vositasi sifatida xizmat qilib, adresatda ijobiy siyosiy tasavvur shakllantirishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, fransuz siyosiy diskursida kelajak obrazini yaratishga qaratilgan kommunikativ strategiyalar ham faol qo'llanadi. Masalan:

Ensemble, nous pouvons relever les défis de demain.

Ushbu nutqiy birlikda ensemble (birgalikda) va nous pouvons (biz qila olamiz) shakllari adresant va adresat o'rtasidagi hamkorlik munosabatini kuchaytiradi. Natijada siyosiy nutq nafaqat axborot yetkazish, balki auditoriyaning muayyan harakatga undash va ijobiy kayfiyat shakllantirish vositasiga aylanadi.

Ba'zi tadqiqotchilar siyosiy diskursda kommunikativ strategiyalarni o'rganishda asosan mazmuniy jihatlarni tahlil qilish yetarli, deb hisoblaydilar. Biz esa aksincha, siyosiy nutqning samaradorligini belgilashda lingvopragmatik omillar, xususan, adresantning kommunikativ maqsadi, adresatning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda tanlangan til vositalarining ta'sir imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaymiz. Chunki siyosiy diskursda qo'llaniladigan har bir lingvistik birlik nafaqat axborot yetkazish, balki auditoriyaning munosabatini shakllantirish va muayyan g'oyaviy pozitsiyani mustahkamlash vazifasini ham bajaradi.

Shunday qilib, fransuz siyosiy diskursidagi kommunikativ strategiyalar o'zining umumiy xususiyatlariga qaramay, muayyan lingvopragmatik belgilar va o'ziga xos ifoda vositalariga ega degan xulosaga keldik. Shuni ta'kidlash joizki, siyosiy diskursda qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar ko'pincha ixcham va ta'sirchan til birliklari, chaqiriq mazmunini ifodalovchi imperativ shakllar, baholovchi leksika hamda adresatni muayyan harakatga undovchi pragmatik vositalar orqali namoyon bo'ladi.

Shuningdek, siyosiy nutqning qaysi auditoriyaga yo'naltirilganligi siyosiy matnning bevosita murojaat shakllarida yoki unda qo'llanilgan muayyan leksik birliklar majmuasida namoyon bo'lishi mumkin. YA'ni, bu o'rinda adresat omili muhim rol o'ynaydi, chunki u siyosiy diskursda kommunikativ strategiyalarni tanlash, til vositalaridan foydalanish va nutqning pragmatik yo'nalishini belgilashga xizmat qiladi. Bu jarayonda siyosatchilar auditoriyaning ijtimoiy, madaniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda turli murojaat shakllari, baholovchi birliklar, metaforalar hamda hissiy-ekspressiv vositalardan foydalanadilar. Mazkur vositalarning barchasi esa adresantning kommunikativ maqsadi va siyosiy ta'sir strategiyasidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Fransuz siyosiy diskursida kommunikativ strategiyalar faqatgina ishonitirishga emas, balki adresat e'tiborini jalb qilish va unda muayyan hissiy munosabat shakllantirishga ham qaratiladi. Bu jarayonda fransuz siyosiy diskursida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, madaniy obrazlar va ijtimoiy konseptlardan keng foydalanilganini ko'rish mumkin. Fransuz siyosiy kommunikatsiyasida ta'sirchan va mazmunan boy nutq shakllari auditoriyada ijobiy taassurot uyg'otishi hamda siyosiy g'oyaning qabul qilinishiga yordam berishi mumkin, degan qarash mavjud. Shu sababli siyosiy nutq yaratishda avvalo kuchli kommunikativ g'oya va ta'sir mexanizmi shakllantiriladi, shundan keyingina

tanlangan lingvistik vositalarning umumiy siyosiy strategiyaga muvofiqligi aniqlanadi.

Siyosiy diskurs yaratuvchilari adresatning ongiga ta'sir ko'rsatish va muayyan siyosiy g'oyalarni shakllantirish maqsadida turli kommunikativ strategiyalardan foydalanadilar. Siyosiy kommunikatsiya vositalari auditoriyaning qarashlari, munosabati va xatti-harakatlariga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi, hatto ularning ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Adresatda siyosiy xabar haqida ijobiy tasavvur hosil qilish uchun kommunikativ maqsadga mos lingvistik vositalar, jumladan, baholovchi leksika, metaforalar, murojaat shakllari va pragmatik birliklardan samarali foydalaniladi. Siyosiy nutqning adresat xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi esa kommunikativ ta'sir samaradorligini oshiradi hamda siyosiy g'oya va qadriyatlarining qabul qilinishiga yordam beradi. Shu sababli auditoriyaning ijtimoiy va madaniy xususiyatlari siyosiy diskursda kommunikativ strategiyalarni tanlashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, siyosiy diskursda kommunikativ strategiyalarni aniqlashning muhim ko'rsatkichlari ushbu siyosiy xabarni qabul qiluvchi auditoriyaning dunyoqarashini aks ettiruvchi leksik birliklar, baholovchi vositalar va muayyan kommunikativ modellar hisoblanadi. Fransuz siyosiy diskursining o'ziga xos jihatlari adresatning ijtimoiy mavqei, psixologik xususiyatlari va siyosiy qarashlarini hisobga olgan holda axborot-ta'sir, ratsionallik-emotsionallik hamda birdamlik-qarama-qarshilik mezonlari asosida kuzatish mumkin. Siyosiy nutqning lingvopragmatik xususiyatlariga aniq va maqsadli jumla tuzilishi, dalillarga asoslangan fikr bayoni, baholovchi leksik birliklardan foydalanish hamda adresatni muayyan pozitsiyani qabul qilishga undovchi kommunikativ vositalar kiradi. Misol tariqasida fransuz siyosiy diskursidan quyidagi namunani keltiramiz:

«Nous devons bâtir ensemble une France plus forte, plus juste et plus indépendante.»

Ushbu nutqiy birlikda bir nechta lingvopragmatik vositalardan foydalanilgan. Avvalo, nous (biz) olmoshi orqali birdamlik strategiyasi amalga oshirilgan bo'lib, siyosiy lider va jamiyat o'rtasidagi yaqinlik munosabati shakllantiriladi. Ensemble (birgalikda) leksik birligi esa adresatni umumiy maqsad atrofida birlashishga undovchi pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, plus forte, plus juste, plus indépendante kabi ijobiy baholovchi sifatlar orqali kelajakning ideal obrazi yaratiladi va auditoriyada ijobiy hissiy munosabat shakllantiriladi. Mazkur misolda siyosiy diskursning asosiy kommunikativ strategiyalari — identifikatsiya, ishonirish va ijobiy baholash strategiyalari namoyon bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fransuz siyosiy diskurs namunasida kommunikativ xabarni shakllantirishda ortiqcha ifodalardan holi, aniq va ta'sirchan jumla tuzilmalaridan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, unda siyosiy auditoriyaning xususiyatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy birdamlik, milliy qadriyatlar va umumiy manfaatlarini ifodalovchi leksik birliklardan (France, ensemble kabi) foydalanilgan. Shu bilan birga, adresatga ta'sir ko'rsatish maqsadida dalillash va ishonirish strategiyalariga asoslangan fikrlar (nous devons, bâtir ensemble kabi) taqdim etilgan. Mazkur lingvistik vositalar orqali siyosiy adresant o'z g'oyalarini asoslash, auditoriya ishonchini qozonish va muayyan ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishga intiladi.

Fransuz siyosiy diskursida qo'llaniladigan kommunikativ strategiyalar muayyan leksik birliklar, mantiqiy tuzilish va pragmatik maqsadni o'zida mujassam etadi. Ushbu xususiyatlar siyosiy nutqning o'ziga xos jihatlari aniqlashga yordam beradi. Siyosiy diskursda adresat obrazini shakllantirishda qo'llaniladigan nominativ birliklar jamiyat, millat, qadriyat va ijtimoiy guruhlar haqidagi stereotipik tasavvurlarni aks ettiradi. Fransuz siyosiy nutqining asosiy axborot vositalari esa real ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, madaniyat va jamiyat hayotiga oid tushunchalar hisoblanadi. Shu sababli siyosiy diskursda qo'llaniladigan til birliklari nafaqat axborot yetkazish, balki voqelikni muayyan siyosiy nuqtai nazardan talqin qilish va adresatning munosabatini shakllantirish vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, fransuz siyosiy diskursida odatda davlat boshqaruvi, ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiyot, xavfsizlik, milliy qadriyatlar va xalq manfaatlariga oid mavzular ustunlik qiladi. Mazkur mavzularni yoritishda esa siyosiy adresantning kommunikativ maqsadi, ya'ni ishonirish, birdamlikni shakllantirish, ijobiy imij yaratish va auditoriyaga ta'sir ko'rsatish kabi strategiyalar muhim o'rin egallaydi. Siyosiy nutqlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularda ko'pincha kuch, barqarorlik, taraqqiyot, erkinlik va adolat kabi konseptlarni ifodalovchi leksik birliklardan foydalaniladi. Bunday birliklar orqali siyosiy liderning muayyan qadriyatlarini himoya qiluvchi va jamiyat manfaatlarini ifodalovchi obrazi yaratiladi. Ushbu turdagi siyosiy nutq matnlari pragmatik ta'sirni kuchaytiruvchi baholovchi birliklar, qisqa va ta'sirchan sintaktik tuzilmalar hamda adresatni muayyan pozitsiyani qabul qilishga undovchi kommunikativ vositalardan foydalanish bilan tavsiflanadi:

«La France est une nation forte, libre et indépendante.»

«Ensemble, construisons l'avenir de notre pays.»

«Nous devons protéger nos valeurs et défendre notre liberté.»

«Une France plus juste, plus forte et plus solidaire.»

Xulosa va takliflar. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, fransuz siyosiy diskursida kommunikativ strategiyalar adresantning siyosiy maqsadi, auditoriyaning ijtimoiy xususiyatlari va muloqot vaziyatidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Siyosiy nutqda ko'proq milliy qadriyatlar, xalq, erkinlik, xavfsizlik, taraqqiyot va birdamlik kabi konseptlarni ifodalovchi leksik birliklar ustunlik qiladi. Bunday birliklar siyosiy diskursda asosiy kommunikativ strategiyalarni, xususan, identifikatsiya, ishonirish va ijobiy baholash strategiyalarini namoyon etadi. Siyosiy nutqda qo'llaniladigan leksik vositalar, sintaktik tuzilmalar va pragmatik birliklar adresat obrazini shakllantirish hamda siyosiy xabarni samarali yetkazishga xizmat qiladi. Siyosiy diskursdagi nominativ birliklar jamiyat, davlat va ijtimoiy guruhlar haqidagi muayyan tasavvurlarni aks ettiradi. Fransuz siyosiy nutqining asosiy axborot vositalari esa real ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, madaniyat va jamiyat hayoti bilan bog'liq tushunchalarni qamrab oladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, siyosiy diskursda yuqori darajadagi kommunikativ ta'sirning asosiy omillaridan biri adresat dunyoqarashini aks ettiruvchi leksik birliklar, baholovchi vositalar va stereotipik ijtimoiy obrazlardan foydalanish hisoblanadi. Shunday qilib, fransuz siyosiy diskursini shakllantirishda adresat omili va kommunikativ strategiyalarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi degan xulosaga kelindi.

ADABIYOTLAR

1. Charaudeau P. Le discours politique: les masques du pouvoir. – Paris: Vuibert, 2005.
2. Maingueneau D. Analyser les textes de communication. – Paris: Armand Colin, 2016.
3. Van Dijk T.A. Discourse and Power. – London: Palgrave Macmillan, 2008.
4. Fairclough N. Language and Power. – London: Longman, 1989.
5. Pêcheux M. Analyse automatique du discours. – Paris: Dunod, 1969.
6. Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. – Москва: Гнозис, 2004.
7. Карасик В.И. Языковые ключи. – Москва: Гнозис, 2009.
8. Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – Москва: ЛКИ, 2008.